

ZAMONAVIY BO'LAJAK MUTAXASSISLARNI TAYYORLASH HOLATI VA MUAMMOLAR TAHLILI

A. A. Jalilov

Sh. T. Qodirova

Navoiy davlat pedagogika instituti

Oliy ta'lif muassasasilda an'anaviy va yangi fanlar orasida auditoriya soatlarining qayta taqsimlanishi, fan bo'yicha soatlar majmuida mustaqil ish ulushini oshirish, tabiiy-ilmiy fanini masofaviy va ochiq o'qitishni rivojlantirish sharoitlarida texnik tizimlarda axborot texnologiyalari fanini o'qitish sifatini saqlab qolish va oshirish yangi pedagogik uslubiyotlarni, shu jumladan zamonaviy kompyuter texnologiyalariga asoslanadigan uslubiyotlarni ishlab chiqish, asoslash va qo'llashni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 06 noyabrdagi PQ-4884 sonli "Ta'lif-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida ta'lif-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar" to'g'risidagi qarorlarining 13-bo'limda ko'rsatilgan professional ta'lifning ta'lif dasturlari va o'qitish materiallari to'plamlarini mehnat bozorining talablari, tarmoq malaka ramkalari va professional standartlar asosida ish beruvchilar bilan birlgilikda ishlab chiqsin va tizimli ravishda takomillashtirib borish, professional ta'lif tizimida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning metodik ta'minotini mustahkamlash, ularni yangi ta'lif resurslari bilan ta'minlab borish imkoniyatini beradigan alohida elektron platformani ishlab chiqsin va ta'lif dasturlari, o'qitish materiallari hamda boshqa uslubiy qo'llanmalardan masofaviy tarzda foydalanish imkoniyatini yaratish, rivojlangan davlatlarning IT-texnologiyalari, robototexnika, qurilish, turizm, transport, energetika va boshqa sohalar bo'yicha yetakchi professional ta'lif muassasalari filiallarini tashkil qilish bo'yicha tegishli choralar ko'rsatish ko'rsatilgan

Ta'lifni rivojlantirish zamonaviy tendensiyalari bilan shartlangan o'qitishni modernizatsiyalash talablaridan tashqari, texnik oliy ta'lif muassasasida texnologik hodisalarni, jarayonlarni va qonuniylatlarni umumiy va maxsus fanlar kurslarida ko'rib chiqishda ularni o'rganishning mohiyat va uslubiy izchilligini ta'minlash zaruriyati dolzarb bo'lib hisoblanadi. Texnika oliy ta'lif muassasasida o'quv jarayonini talabalarning texnologik jarayonlar to'g'risidagi tushunchalari nuqtai nazaridan tahlil qilish mazkur jarayonlarni umumkasbiy va maxsus fanlar amaliy jihatida ko'rib chiqishda ularning fundamental texnologik asosidan yetarlicha foydalanmasligini ko'rsatadi. Ham tabiiy-ilmiy fanlar, ham uning holatini rivojlantiradigan fanlar uchun xos bo'lgan o'quv materialini formallashgan ifodalash va talabalar o'quv-ilmiy faoliyatining algoritmi shunga olib keladiki, fanning texnologik mohiyatini tushunish o'z o'rnnini tayyor bilimlarni o'zlashtirishga va ko'nikmalarning cheklangan miqdorini egallashga beradi. Shu vaqtning o'zida, tabiiy-ilmiy fanlarni o'qitishni rivojlantirish zamonaviy tendensiyalari talabalarda uzlusiz o'zgaruvchan ko'p omilli vaziyatlarda kasbiy va ijtimoiy faoliyatni muvaffaqiyatli tashkil qilish maqsadida yangicha fikrlash, intellektual va kommunikativ qobiliyatlardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan

Respublikamizning pedagog olim va amaliyotchilari tomonidan oliy ta'lif tizimida zamonaviy ta'lif texnologiyalarini o'quv jarayoniga joriy etish, axborot texnologiyalarini amalda tadbiq etish, o'quv-uslubiy ta'minoti takomillashtirish, ta'lif sifatini oshirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Ammo bugungi kunda oliy ta'lif muassasalarida tabiiy-ilmiy fanlarni o'qitishda ta'limi kompyuter dasturlari,

xususan modellashtirish dasturlaridan foydalanib o'qitishni tashkil etish va ushbu dasturlardan o'qitishda keng foydalanishning ilmiy-metodik asoslari ishlab chiqilmagan. Ta'limga oluvchilarda kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini samarali shakllantirishda ishlab chiqarishdagi texnologik jarayonlarni to'laqonli tasvirlab beradigan modellashtiruvchi dasturlarni yaratish va ulardan foydalanish ilmiy asoslangan tizimini yaratish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi

O'zbekistonda ushbu yo'nalishda olimlarimiz tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan, xususan ta'limga axborot - kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'yicha tadqiqotlar A.A.Abduqodirov, A.X.Abdullayev, M.Aripov, U.Begimkulov, Sh.S.Ahrarov, B.Begalov, F.Zakirova, N.A.Muslimov, M.Lutfullayev, S.Rahmonqulova, N.I.Taylaqov, S.S.G'ulomov, R.H.Hamdamov, U.Yuldashevlar tomonidan amalga oshirilgan.

G.S.Sabirova o'z tadqiqotlarida ta'kidlaganidek "Ingliz tili darslarida turli xil axborot texnologiya vositalarini qo'llash mumkin, biroq til materiallarini o'rgatishda har qanday axborot texnologiya vositalaridan foydalanib bo'lmaydi"

M.A.Fayziyev o'z tadqiqotlarida ta'kidlaganidek "Kompyuter immitasion modellari talabalarga o'quv materiallari ustida har xil rejimda ishlash imkoniyatini yaratdi, talabalar o'quv materialini o'rganishda interfaol imkoniyatlarni tanlashi mumkin"

S.S.Babadjanov o'z tadqiqotlarida ta'kidlaganidek "Multimedia asoslariga oid, mediakompetentlik darajasini oshirishga qaratilgan maxsus kurslar, nazаримизда, bitiruvchilarga nafaqat oliy ta'limga muassasalarida ta'limga olish, balki keyingi kasbiy pedagogik faoliyatida ham mediakompetentlikning yuqori darajasini namoyish qilish imkonini beradi"

S.S.Beknazarova o'z tadqiqotlarida ta'kidlaganidek "Zamonaviy multimedia komplekslarining o'ziga xos xususiyatlari ularning faoliyati diskret-uzluksiz xarakterga ega ekanligi aniqlangan. Avvalo, bu holat madaniyat, ta'limga va boshqa sohalarda alohida tizim ostilarida tashkil bo'luvchi muvofiq ishlab chiqarish tizimlarida namoyon bo'ladi. Ularning holatlari ma'lum bir vaqtarda uzluksiz yoki diskret o'zgarib turadi

B.A.Fayzullayev o'z tadqiqotlarida ta'kidlaganidek "Texnologik jarayondagi ob'yektlarning og'ishlari va nosozliklarini tashxislash va ularni bartaraf etish bo'yicha qarorlar qabul qilish jarayoni, to'rtta blokdan va ma'lumotlar bazasidan iborat texnologik moduldan tashkil topgan"

X.Sh.Qodirov o'z tadqiqotlarida ta'kidlaganidek "Bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga mufassal o'rgatish tizimini yaratish va joriy qilish bo'yicha ishlar tizimli yondashuvni va ta'limga ishtiroy qiladigan barcha bo'linmalarining hamkorlikdagi faoliyatini talab etadi"

D.S.Tuxtanazarov o'z tadqiqotlarida ta'kidlaganidek "Modellashtirish ob'yekt yoki jarayonlarning o'zi bilan emas, balki ularning modellari bilan ishlaganda yangi ma'lumotlar olishga yordam beradi, bu esa sezilarli darajada osonroq bo'ladi"

I.A.Eshmamatov o'z tadqiqotlarida keltirganidek "Har qanday jarayonning samarali kechishi, faoliyatning muvaffaqiyatlari tashkil etishi unga ta'sir etadigan omillarga bog'liq. Shunga ko'ra tadqiqodni olib borish davrida oliy ta'limga muassasalari pedagoglarining axborot-kommunikasiyon kompetentligini rivojlantirish jarayonining samarali kechishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar mavjud".

F.R.Muradova o'z tadqiqotlarida ta'kidlaganidek "Didaktik o'yinlarni tanlashda talabalarning ruhiy holati, bilish qobiliyatları, nutqi, tengdoshlari va kattalar bilan muloqot tajribasining rivojiga

ko'maklashishi, o'quv mashg'ulotlariga nisbatan qiziqish uyg'otishi, o'quv faoliyati bilim va malakalarini shakllantirishi, natijalarni tahlil qilish, taqqoslash, mavhumlashtirish, umumlashtirishni o'rgatishda talabaga yordam byerishiga e'tibor qaratish lozim"

Adabiyotlar ro'yxati

1. A. A. Djalilov TRAINING BASED ON INNOVATIVE TECHNOLOGIES AND EDUCATIONAL PROGRAMS IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS'COMPETENCE// Uzbek Scholar Journal Volume-25, February, 2024 www.uzbeckscholar.com
2. Jalilov Anvar Abdulloyevich, Rustamov Anvar Normamatovich MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA KASBIY MAZMUNLI MASALALARING SIFATLI TA'LIMDAGI AHAMIYATI // "UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA MADANIY MUHITNI YARATISHNING PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI: MUAMMO VA YECHIMLAR" MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI, MAY 15-16, 2023
3. Jalilov Anvar Abdulloyevich, Rustamov Anvar Normamatovich MAKTAB DARSLIKLARIDA FAZOVIY SHAKLLARNI O'RGANISHDA KASBIY KONTEKSTDAGI MASALALAR// PEDAGOGY OF COOPERATION IN IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND MODERN APPROACHES International scientific-practical conference, November 13, 2023
4. Жалилов А. А. ЯНГИ АХБОРОТ-ТАЪЛИМ МУҲИТИ ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИНИНГ ИННОВАЦИОН ТАВСИФИ СИФАТИДА// Uzbek Scholar Journal Volume- 25, February, 2024 www.uzbeckscholar.com
5. Хакимов А., Турсунова Э.М., Кодирова Ш.Т. ОБ ОДНОМ МЕТОДЕ ВЫЧИСЛЕНИЙ НЕСТАНДАРТНЫХ, НЕСОБСТВЕННЫХ ИНТЕГРАЛОВ// ВЕСТНИК НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ № 7 (110). Часть 3. 2021.
6. Хакимов А. , Боймуродов Ж.Х. , Кадирова Ш.Т. , Олтиев А.Б. ПЛОСКАЯ ЗАДАЧА ОБ АЭРОДИНАМИЧЕСКОМ ВЗАИМОДЕЙСТВИИ ВСТРЕЧНЫХ СКОРОСТНЫХ ПОЕЗДОВ ПРЯМОУГОЛЬНОЙ ФОРМЫ В БЕЗГРАНИЧНОЙ ЖИДКОСТИ// ВЕСТНИК НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ № 9(87). Часть 2. 2020.
7. Malikova Muhabbat, Sayfullaeva G. I., MODERN FORMS OF ORGANIZATION OF INDEPENDENT WORK OF STUDENTS AS A PEDAGOGICAL PROBLEM// SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 3 ISSUE 1 JANUARY 2024 UIF-2022: 8.2| ISSN: 2181-3337| SCIENTISTS
8. Rashidova Nilufar, Sayfullayeva G. I Achieving Transparency in Education// Open Herald: Periodical of Methodical Research Volume 1, Issue 7, November, 2023 ISSN (E): 2810-6385 Website: <https://academiaone.org/index.php/6>
9. Malikova Muhabbat, Bozorova Aziza, Sayfullayeva G. I. Relevance of Independent Educational Activities of Students in the Credit–Modular Education System// *Open Academia: Journal of Scholarly Research*, 1(8), 40–42. Retrieved from <https://academiaone.org/index.php/4/article/view/297>
10. Sunnatova O'g'iloy Kamardin qizi , Sayfullayeva G. I. MAKING A VACUUM CLEANER USING THE STEM EDUCATION SYSTEM IN STUDENTS' LABORATORY CLASSES// Web of Technology: Multidimensional Research Journal 2023/11/24
11. G.I.Sayfullayeva, H.R.Shodiyev KREDIT MODUL TIZIMIDA FANLARNI INTEGRATSION YONDASHUV ASOSIDA O'QITISHNING AFZALLIKLARI// Academic Research in Educational Sciences Multidisciplinary Scientific Journal September, Volume 3 | Issue 9 | 2022

12. Shodiyev Hamza Rozikulovich, Sayfullayeva Gulhayo MASOFAVIY TA'LIMDA YER MAVZUSINI INTEGRATION YONDASHUV ASOSIDA TOPISH METODIKASI// Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES) VOLUME 1, ISSUE 10 / ISSN 2181-2675
13. O'. K. Sunnatova, G. I. Saifullayeva Research in students in physics and astronomy classes and the development of competencies of the XXI century. Ways of organizing project activities of students in physics education Uzbek Scholar Journal Volume-24, January, 2024 www.uzbekscholar.com 101-108
14. Sayfullayeva Gulhayo Ikhtiyor kizi, Bozorova Aziza Murodilla kizi The practical importance of an integrative approach to teaching astronomy from a small school age uzbek scholar journal volume-24, january, 2024 www.uzbekscholar.com 130-133
15. Saifullayeva Gulhayo volunteer daughter Interactive Applications From Astronomy And Ways To Manage Them Uzbek scholar journal volume- 24, january, 2024 www.uzbekscholar.com 123-129
16. I.R. Kamolov, G.I. Sayfullaeva -Formation of teacher's competence in the performance of laboratory and experimental works Journal of critical reviews. ISSN-2394-5125, 2020
17. Sayfullayeva Gulhayo Ixtiyor qizi, Norqulov Madina Hamza qizi Astronomiyani axborot ta'lim muhitlaridan foydalanib o'qitishning pedagogik tamoyillari// «Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot» nomli ilmiy, masofaviy onlayn konferensiyasi 104-109
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10443860>
18. Sayfullayeva Gulhayo Ixtiyor qizi, Norqulova Madina Hamza qizi "QUYOSH TIZIMIDAGI SAYYORALAR" ELEKTRON MAJMUA YARATISH TEXNOLOGIYASI// YOSH OLIMLAR ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI in academy.uz/index.php/yo